



CHET TILINI O'QITISH KONTEKSTIDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Muallif: Ashurova Zulayxo Erkinovna ¹

Affilyatsiya: mustaqil tadqiqotchi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14435642>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual asoslari ochib berilgan, ingliz tilini o'qitishning pedagogik zarurati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, xorijiy tajriba, kontekst, madaniyatlararo muloqot, muloqot, ko'nikma, o'qitish, tizim, oliy ta'lim tashkiloti.

Dunyoda tobora globalashayotgan ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tashkil etish, o'qitish va kadrlar tayyorlashda ham o'zining u yoki bu ma'noda sezirlari ta'sirini o'tkazmoqda. Ushbu hozirgi bosqichda talablarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan hamda ertangi kun talabiga javob beradigan yangi-yangi yondashuvlarni amaliyotga qo'llash lozimligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish, raqobatbardosh, global va ko'p madaniyatli dunyoda O'zbekiston Respublikasining jahon sahnasida raqobatbardosh davlat sifatida ulkan rejalarni amalga oshirishda kasbiy va madaniy muammolarni bartaraf etish asnosida erishish uchun faol harakat qilmoqda. Shunday madaniy muloqotlardan biri bu – chet tilini o'qitish jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasidir. Mamlakatimiz oliy ta'lim tashkilotlari 2020-2021 o'quv yilidan boshlab, kredit-modul tizimida asosida o'qitishniyo'lga qo'ydi. Bu bilan Boloniya ta'limi jarayoniga kirib, oliy ta'limni isloh qilishning misli ko'rilmagan yuqori bosqichga olib chichishga muvoffaq bo'ldi. Bunday urinishlar yangi ta'lim paradigmasiga olib keldi, provard natijada, uning doirasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining ustuvor sohalari qayta ko'rib chiqildi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash sifat – samaradorligi ijtimoiy rivojlanish tendensiyalariga mos keladigan shaxs manfaatlarini tizimni tashkil etuvchi bo'g'in sifatida takomillashtirildi. Respublika ehtiyojidan kelib chiqqan holda Respublika iqtisodiyot tarmoq sohaslarini chet tilini biladigan malakali kadrlar bilan ta'minlash davlat siyosati darajasigi chiqdi. Aytish joizki, bu borada chet tiliga ixtisosliklari bilan bir qatorda nofilolgiya ta'lim yo'nalishlarida chet tilini o'qitish kontekstida madaniyatlararo muloqot ko'nikmani rivojlantirish bilan bog'liq masalalar, jumladan, mutaxassislarni kasbiy tayyorlash tizimidagi tub o'zgarishlar oliy ta'limda chet tilidagi ta'limning yangi qiyofasi

– konsepsiyasini yaratishni talab qiladi. Shubhasiz, ushbu tendensiyalarni aniqlash biz tomonimizdan amalga oshirilgan tadqiqot ishi mvzusi doirasida oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini o’qitishning zamonaviy maqsadini aniqroq aniqlashga imkon berdi, bu esa o’z navbatida uning zamonaviy mazmunini hisobga olgan holda o’quv jarayonini qurishga yordam beradi.

Shubhasiz bugungi ta’lim tizimini rivojlantirish, takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning eng maqbul mexanizmlaridan biri bu – barcha ta’lim yo’nalishlarida chet tilini o’zlashtirish asosida amalga oshirilmoqda. Gumanitar ta’lim yo’nalishlarida talabalarning madaniyatlararo muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning kasbiy mahoratining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Buning sababi shundaki, bugungi axborotlar asri hisoblangan bir sharoitda oliy ta’limning maqsadi madaniyatlararo muloqot ko’nikmalarini rivojlantirishga hissa qo’shadigan, xalqaro, ilmiy va madaniy aloqalarni o’rnatishga hissa qo’shadigan barcha sohalarida chet tilini bilish darajasi yuqori bo’lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Bunday sharoitda gumanitar ta’lim yo’nalishlarida chet tilini o’qitish kontekstida madaniyatlararo muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish borasida kadrlar sifatining zaruriy sharti sifatida globallashtirish makonda mutaxassislarining til vositasida o’zaro samarali aloqasini ta’minlaydigan tizimni yaratishdir.

Dunyo halqlari tajribalaridan ko’rinib turibdiki, barcha millat va elatlarni o’zaro aloqa vositasi sifatida “dunyo tili” hisoblangan chet tillarni bilish, o’rganish mehnat bozorida har qanday mutaxassislarga qo’yilayotgan asosiy talabning shartlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Gumanitar ta’lim yo’nalishlarida chet tilini o’qitish masalasi bir qator xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o’z ifodasini topib kelmoqda. Jumladan, S.G. Ter-Minasova “chet tili vositasida talabalarning turli madaniyatlararo o’zaro muloqotini tashkillashtirish ta’limning ijtimoiylashtirish vositasidir” degan ig’oyani ilgari suradi. Mazkur g’oya aynan biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqot ishiniing asosiy maqsadlarini belgilovchi vositasi sifatida e’tirof etiladi.

Bularning barchasi tabiiy ravishda nafaqat boshqa ta’lim yo’nalishlari balki, gumanitar yo’nalishlari talabalarining ham til o’rganish zaruriyati mavjudligini anglatadi.

O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi (19.09.2020 637-son) Qonuni tom ma’noda davlat va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida chet tili fanlarini o’qitishning yana bir mexanizm sifatida o’rtaga chiqdi. Oliy ta’lim tashkilotlari chet tillarni o’qitish fanining o’quv dasturiga muvofiq, chet tilini bilish har qanday yo’nalishdagi zamonaviy mutaxassisni kasbiy tayyorlashning majburiy tarkibiy qismidir.

Chet tilini bilish nafaqat bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari shaxsining madaniy rivojlanishining tarkibiy qismidir, balki uning ishlab chiqarish faoliyatining turli sohalarida muvaffaqiyatli ishlash shartidir. Shuni alohida ta’kidlash lozim-ki, bugungi mustaqil ta’limga asoslangan ta’lim sharoitida chet tillarni o’qitishda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida umumiy tendensiyalar bilan bir qatorda gumanitar ta’lim yo’nalishlarida chet tilini o’qitish kontekstida madaniyatlararo muloqot ko’nikmalarini rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlari bilan bog’liq sezilarli o’zgarishlar ro’y bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ahmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligidan Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi. T.: 2020. 159 b.

Pulatova D. R. Intensiv ta'lim texnologiyalari asosida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarini kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligidan Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi. T.: 2021. 151 b.

Pardaeva D.T. Bo'lajak o'qituvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligidan Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi. T.: 2022. 134 b.

